

## STIVEN KING JANG (HIKOYA)

-Janob Rensho?

Bino xizmatchisining ovozi Renshoni liftga yetay deganida to'xtatdi. U ortiga o'girildi va qo'lidagi sumkani narigi qo'liga oldi. Pidjagining ichki cho'ntagida yigirma va ellik dollarlik pullar solingan og'ir xatjild shitirladi. U ishini a'lo darajada bajargan va Tashkilot uning haqidan yigirma foiz olib qolgan bo'lsa-da yaxshigina pul to'lagandi. Rensho xonasiga kirib uxlamochi edi.

-Nima gap?

-Sizga jo'natma kelibdi. Marhamat, imzo cheking. Rensho uf tortdi va qutiga o'ychan qaradi. Qutiga uning ism-sharifi va manzili yozilgan qog'oz parchasi yopishtirilgandi. U qutini olib silkitib ko'rdi, nimadir shiqirladi.

-Xonangizga olib kirib beraylikmi, janob Rensho?

-Yo'q, o'zim.

Uzunligi yarim metrga yaqin bo'lgan qutini qo'ltig'i ostida ko'tarish noqulay edi. U qutini lift poliga qo'ydi va bir nechta tugmalar joylashgan quticha tirqishiga kalit solib buradi. Rensho binoning eng yuqori qavatidagi hashamatli xonadonda istiqomat qilardi. Lift asta yuqoriga ko'tarildi. U ko'zlarini yumdi va oxirgi ishini xayolidan o'tkazdi.

Avvaliga har doimgidek Kel Beyts qo'ng'iroq qildi:

-Jonni, bo'shmisan?

Rensho yaxshi va ishonchli mutaxassis, u bir yilda bor-yo'g'i ikki marta bo'sh bo'ladi, xizmati uchun kamida o'n ming dollar oladi, mijozlar uning bexato yirtqichlik

faoliyati uchun haq to‘lashadi. Jon Rensho odam o‘ldirishga ixtisoslashgan YIRTQICH.

Beytsning qo‘ng‘irog‘idan so‘ng Rensho pochta qutisidan ichiga kimningdir ism-sharifi hamda manzili yozilgan qog‘oz va fotosurat solingan xatjildni oldi. U qog‘ozdagi yozuvlarni eslab qoldi, xatjildni esa ichidagilari bilan yondirib tashladi.

Fotosuratdagi shaxs Mayamidagi «Morris o‘yinchoq ishlab chiqarish kompaniyasi» egasi va asoschisi Gans Morris edi. Bu nusxa kimgadir xalaqit bergan, u xalaqit bergan kishi Tashkilotga murojaat qilgan va Kel Beyts Jon Rensho bilan gaplashgandi...

Lift eshiklari ochildi, u qutini qo‘ltig‘i ostiga qistirdi, yo‘lakka chiqdi va xonasiga kirdi. Keng xona aprel quyoshining nurlaridan yorishib ketgandi. Rensho bir necha soniya o‘zini nurga solib turdi, qutini eshik yonidagi stol ustiga qo‘ydi, pul solingan xatjildni tashladi, bo‘yinbog‘ini bo‘shatdi va ayvonga chiqdi.

Tashqari sovuq edi, shamol uning yupqa paltosidan o‘tib etini junjiktirdi. Ammo Rensho bir daqiqacha xuddi butun mamlakatni zabt etgan sarkardadek shaharni kuzatdi.

Ko‘chalardan mashinalar xuddi qo‘ng‘izlardek g‘izillab o‘tib turardi. Sharq tomonda, osmono‘par binolar ustida teleantennalar xuddi o‘rmondek ko‘zga tashlanardi.

U ichkariga qaytdi, ayvon eshigini yopdi va vannaxonaga kirib ketdi.

Qirq daqiqadan keyin Jon Rensho vannaxonadan chiqdi va qutini sinchkovlik bilan ko‘zdan kechira boshladi. «Qutida bomba bor».

Qutida bomba yo‘q, lekin qutida bomba bor deb tasavvur qilish kerak. U doim shunday qiladi va aynan shuning

uchun boshqalar allaqachon narigi dunyoga ravona bo‘lishgan bir paytda u xotirjam umrguzaronlik qilib kelmoqda.

Agar bu bomba bo‘lsa, unda soat mexanizmi yo‘q-quti ichidan hech qanday chiqillagan ovoz kelmayapti. Ammo hozirda plastik portlatgichdan foydalanishyapti.

Rensho pochta muhriga qaradi: Mayami, 15 aprel. Besh kun burun jo‘natilgan. Soat mexanizmi bilan ishlaydigan bomba allaqachon portlab ketgan bo‘lardi.

U qo‘llarini ko‘ksiga chalishtirgancha qutiga astoydil nazar tashladi. Morrisning yaqinlari Renshoning manzilini qaerdan bilishgani uni hozir qiziqtirmasdi. Bu savolni u keyinroq Beytsga beradi. Hozir bu muhimmas.

U hamyonidan plastik kalendar chiqardi va qutini o‘rab turgan yopishqoq tasmani kesdi. Engashib, qutini hidlab ko‘rdi. Qog‘ozdan boshqa narsaning hidi kelmadi. U qutini ozgina teshib, quti ichiga mo‘raladi: yashil quticha ko‘rindi. Rensho o‘tirdi va pichoq bilan qutichani o‘rab turgan tasmani kesdi.

Qutichaga «Amerikalik veteran Joning vetnamcha sandig‘i» deb yozilgandi. Bu yozuv ostidan quyidagi so‘zlar bitilgandi: «Yigirmata piyoda askar, o‘nta vertolyot, ikkita pulemyotchi, ikkita shifokor, ikkita granatomyot, to‘rtta «jip». Eng pastda, burchakda «Morris o‘yinchoq ishlab chiqarish kompaniyasi» degan yozuv bor edi.

Rensho sandiqcha qopqog‘ini ko‘tardi. Sandiqcha ichida nimadir harakatlandi.

Jon xona chirog‘ini yoqish uchun o‘rnidan turdi.

«Vetnamcha sandiq» qimirladi. Kutilmaganda u yonboshiga ag‘darildi va gilam ustiga tushdi. Sandiqcha qopqog‘i ochilib ketdi.

Har birining bo‘yi to‘rt santimetrdan bo‘lgan kichkina askarchalar sandiqcha ichidan o‘rmlab chiqa boshlashdi. Rensho ulardan ko‘z uzmay qarab turardi. Rensho bunday voqea bo‘lishi mumkin emasligini o‘ylamas, butun fikr-zikri qanday xavfga duch kelgani va tirik qolish uchun nima qilish kerakligida edi.

Askarchalar jangovar kiyimda, yelkalariga xalta va mitti miltiqlar osib olishgandi. Ikkitasi Renshoga tikilib turishardi.

Besh, o‘n, o‘n ikki va nihoyat yigirma. Ulardan biri boshqalariga imo-ishora bilan buyruq berdi. Qolgan askarchalar bir tekis safga tizilishdi.

Rensho divanda turgan katta yostiqni qo‘liga oldi va sandiqchaga yaqinlashdi. Komandir o‘girildi va qo‘lini silkitdi. Piyoda askarlar miltiqlarini qo‘llariga olishdi, paqillagan tovushlar yangradi va Rensho xuddi ari chaqqandek og‘riqni tuydi.

U yostiqni irg‘itdi, askarchalar yiqilib tushishdi. Shu payt sandiqcha ichidan xuddi ninachiga o‘xshab yashil rangli vertolyotlar g‘uvillab havoga ko‘tarildi.

Renshoning qulog‘iga eshitar-eshitilmas «paq-puq» etgan tovushlar yetib keldi. U vertolyotlar eshiklarida pulemyotlarning miltillayotgan uchqunlarini ko‘rdi va xuddi kimdir uning qorni, qo‘li, bo‘yniga igna sanchayotgandek tuyuldi. U shaxd bilan qo‘lini uzatib vertolyotlardan birini ushladi va barmoqlarida dahshatli og‘riqni his qildi-vertolyot parraklari uning barmog‘ini sindirib tashlagandi. Qolgan vertolyotlar undan uzoqroqqa

ketishdi va aylana hosil qilib uchishda davom etishdi. Unga jarohat yetkazgan vertolyot gilamga quladi. Rensho oyog‘idagi kutilmagan og‘riqdan baqirib yubordi. Askarchalardan biri uning poyabzali ustida turganча oyog‘iga xanjar sanchardi.

Rensho oyog‘ini silkitib askarchani uloqtirdi.

Yo‘tal ovozigа o‘xshagan tovush yangradi-Renshoning soni jizillab achishdi. Sandiqcha ichidan granatomyot ko‘targan askarcha chiqib keldi-granatomyot og‘zidan tutun ko‘tarilayotgandi. Rensho soniga qaradi va shimining tangachalik joyi teshilib qolganini ko‘rdi. Sonida kuyish izi bor edi.

U ortiga o‘girildi va yotoqxonа tomon qochdi. Uning boshi tepasida vertolyot g‘ing‘illadi, qisqagina o‘t ochgach, ortiga qaytdi.

Yostiq ostida Renshoning to‘pponchasi bor edi. U to‘pponchani ikki qo‘llab ushladi, o‘girildi va elektr chirog‘idan kichikroq uchar nishonga otishi kerakligini tushundi.

Ichkariga ikkita vertolyot kirdi. Rensho o‘q uzdi va vertolyotlardan biri parcha-parcha bo‘lib ketdi. «Bittasi yo‘q bo‘ldi», o‘yladi u, ikkinchisini mo‘ljalga oldi... tepkini bosdi...

Vertolyot kutilmaganda keskin burildi. Rensho o‘q uzayotgan pulemyotchini zo‘rg‘a sezdi va o‘zini polga tashladi.

«U KO‘ZIMNI MO‘LJALGA OLDI!»

Rensho to‘pponchasini ko‘tardi, ammo vertolyot undan uzoqlashib bo‘lgandi. Vertolyot bir oz havoda muallaq turdi, so‘ng mehmonxonа tomon uchib g‘oyib bo‘ldi.

Rensho o‘rnidan turdi, jarohatlangan oyog‘i azob berib afti bujmaydi. «Granatomyot zarbasidan so‘ng omon qolganlar bormikin», deb o‘yladi u.

Yostiqjildni sug‘urib olib oyog‘ini bog‘ladi, soqol olish uchun mo‘ljallangan ko‘zguchani qo‘liga olib eshik tomon yaqinlashdi va uni gilamga qo‘yib ko‘zguga qaradi...

Ular sandiqcha yonida lager o‘rnatishgandi. Askarchalar u yoqdan bu yoqqa yurishar, chodir tikishar, «jip»da atrofni aylanishardi. Rensho tepib yuborgan askarcha ustida shifokor engashgancha muolaja qilardi. Qolgan sakkizta vertolyot lagerni qo‘riqlab atrofda parvoz qilayotgandi. Ular kutilmaganda ko‘zguni sezib qolishdi. Uch nafar piyoda askar tiz cho‘kkancha o‘q uzishdi. Bir necha soniyadan so‘ng ko‘zgu parcha-parcha bo‘lib ketdi. «SHOSHMA Y TURLARING».

Rensho qizil daraxtdan yasalgan og‘ir qutichani oldi va xuddi beysbolchilardek uloqtirdi. Quticha askarlarni yiqitdi. «Jiplar»dan biri ag‘anab ketdi. Rensho o‘q otib askarlardan birini yo‘q qildi.

Ammo qolgan askarlar o‘zlariga kelgan va o‘q uzishni boshlab yuborishgandi.

Rensho yana bir marta o‘q uzdi-tegmadi. Ular judayam kichkina edi! Ammo keyingi otishida yana bitta askarni yo‘q qildi.

Vertolyotlar unga qarata o‘q uzishdi, o‘qlar uning yuziga tegdi. Renshoning otgan o‘qlari ikkita vertolyotga tegdi. Qolgan oltita vertolyot ikkita guruhga bo‘lindi va ortga chekindi. Rensho yuzidan oqayotgan qonni artdi va o‘q uzishga tayyorlandi, ammo to‘xtab qoldi. Piyoda askarlar

sandiqcha ichidan nimanidir tortib chiqarishayotgandi.  
Aftidan...

Sariq uchqun sachradi va Renshoning chap tomonidagi devor suvog‘i ko‘chib tushdi.

**RAKETA USKUNASI!**

U o‘q uzdi, nishonga tegmadi, vannaxonaga yugurib kirib oldi. Ko‘zguga qarab, jangda aqldan ozayozgan hinduning aftiga ko‘zi tushdi. Ko‘zgudagi hinduning yuzi qondan qizil rangga bo‘yalgandi. Yuzidagi teri ko‘chib tushgan, bo‘yin terisini xuddi kimdir shilib olgandek edi.

«MEN JANGDA YUTQAZYAPMAN!»

U qaltiroq qo‘llari bilan sochlarini taradi. Chiqish yo‘li berk. Telefonga yetib borishning imkoni yo‘q. Raketa uskunasi boshini uzib tashlashga tayyor holda turibdi.

«U HAQDA HATTO YOZILMAGANDI HAM!»

Eshikning mushtdek parchasi ko‘chib tushdi. Alanga tillari eshikning hozirgina paydo bo‘lgan yorig‘idan o‘rmaylay boshladi. Vannaxonaga yonayotgan yog‘och parchalari uchib tushdi. Paydo bo‘lgan tuynukdan ikkita vertolyot uchib kirdi va Renshoning ko‘kragiga qarata o‘q uzdi.

U vertolyotlardan birini qo‘li bilan urib tushirdi. Ikkinchi vertolyotni sochiq bilan qulatdi va ezg‘ilab tashladi.

«MANA SENGA! MANA SENGA! ENDI O‘YLAB ISH QILASANLAR!»

Aftidan, ular rostdan ham o‘ylanib qolishdi. O‘n besh daqiqa davomida sukunat hukm surdi. Rensho vanna chetiga o‘tirdi va o‘yga cho‘mdi: bu muammoning yechimi bo‘lishi kerak. Albatta. Ularni aylanib o‘tish kerak.

U keskin o‘girildi va vanna tepasidagi tuynukka qaradi. Bu qopqondan chiqish yo‘li bor. Uning nigohi yondirgichlarni to‘ldirish uchun mo‘ljallangan gazli ballonga tushdi. Rensho unga qo‘lini cho‘zdi va shitirlagan tovushni eshitdi. U darhol o‘girildi, to‘pponchasini to‘g‘riladi, ammo eshik tirqishidan qog‘oz parchasi tushdi.

Qog‘oz parchasida kichkina harflar bilan «TASLIM BO‘L!» degan yozuv yozilgandi.

Rensho iljaydi, gaz ballonchasini ko‘krak cho‘ntagiga soldi, dori qutichasidan qalam bo‘lagini oldi va yozib, eshik tirqishidan tashqariga surdi: «aslo!» Raketalar eshikdagi tuynukdan kirib devorga urilib portladi. Rensho qo‘llari bilan ko‘zlarini berkitdi-devor suvoqlari ko‘chib tushdi.

Bir ozdan so‘ng Rensho vannadan chiqdi va derazani ochdi. Osmonda yulduzlar sovuq nur sochardi. Deraza ostida torgina karniz bor edi, ammo hozir u haqda o‘ylashga vaqt yo‘q edi.

U derazadan osilib pastga tushdi. Yuziga sovuq havo urildi. Rensho pastga qaradi: qirq qavat. Bunday balandlikdan ko‘cha xuddi bolalarning o‘yinchoq temir yo‘lidek ko‘rinardi.

Rensho romga osilib, karnizga oyog‘ini qo‘ydi. Agar hozir birorta vertolyot vannaxonaning yoriq eshigidan ichkariga kirib o‘q uzishni boshlasa bormi, u chinqirgancha pastga qulashi tayin.

Ammo hech narsa sodir bo‘lmadi.

Oyog‘i ostidagi bo‘shliq haqida o‘ylamaslikka harakat qilayotgan Rensho asta-sekin bino burchagi tomon surila boshladi.

To‘rt metr qoldi... uch... Mana, nihoyat yetib keldi. U ko‘ksini devorga tiragancha to‘yib-to‘yib nafas oldi. Endi burchakni aylanib o‘tish kerak...

To‘qqiz metrdan keyin ayvonga yetib oladi...

Nihoyat u ayvonning temir to‘siqlariga osildi.

Rensho ovoz chiqarmasdan ayvonga tushdi, oynavand eshikdan asta mehmonxonaga mo‘raladi. Askarchalar uni sezishmadi.

To‘rt askarcha va bir vertolyot sandiqni qo‘riqlashardi.

Qolganlar esa vannaxona ro‘parasiga o‘rnatilgan raketa uskunasi yonida edi.

«Xo‘sh. Mehmonxonaga yugurib kirib, sandiq yonidagilarni yo‘q qilaman, uydan qochib chiqib, taksiga o‘tirib aeroportga yo‘l olaman».

U ko‘ylagi yengidan bir parchani ensiz tasma qilib yirtib oldi, bir uchini gaz ballon ichidagi suyuqlik bilan ho‘lladi, ikkinchi uchini esa ballon ichiga suqdi, yondirgich olib matoni yoqdi, oynavand eshikni shaxd bilan ochdi va ichkariga tashlandi.

Vertolyot shu zahoti unga hujum qildi. Rensho uni qo‘li bilan urib tushirdi.

Qolgan voqealar soniyalar ichida yuz berdi.

Rensho ballonni uloqtirdi va tashqari eshik tomon yugurdi.

U nima bo‘lganini anglashga ulgurmadi.

Xuddi po‘lat seyf baland binodan yerga tushgandek gumburlagan ovoz keldi. Butun bino silkindi...

\*\*\*

Bir erkak bilan ayol ko'chada ketishayotgandi. Ular cho'chib yuqoriga qarashdi va binoning eng yuqori qavatida oppoq tutun aralash alanga ko'tarilganini ko'rishdi.

-Nima bu?-so'radi ayol.

-Yong'in,-dedi erkak.

Yuqoridan ularning ustiga qandaydir mato tusha boshladi. Erkak uni havodayoq tutib oldi:

-Yo Xudoyim, ko'ylak parchasi, hammayog'i qon, teshilib ketibdi.

-Raf, taksi chaqir,-dedi ayol.-Tezroq ketaylik.

Erkak atrofga alanglab taksi chaqirdi. Mashina to'xtadi va ular taksi tomon yugurisharkan, hozirgina ular turgan joyga bir parcha qog'oz tushganini ko'rishmadi. Unda quyidagi so'zlar yozilgandi:

«Ayrim vetnamcha sandiqlar ichida quyidagilar ham bor: bitta raketa uskunasi, yigirmata «er-havo» raketasi, bitta termoyadroli bomba».

## QASOSKOR MUSHUK (HIKOYA)

Xelstonga o'ziyurar aravachada o'tirgan qariya kasalga, nimadandir qattiq qo'rqan va o'lishga tayyorga o'xshab ko'rindi. Unga bunday manzara tanish edi. O'z kasbining ustalari ichida Xelston tanho edi. «Faoliyati» davomida u o'n sakkiz erkak va olti nafar ayolni o'ldirgan, o'lim nima ekanligini bilardi. Uy sovuq va jimjit edi. Jimjitlikni kamindagi olovning ovozi va tashqarida esayotgan noyabr shamolining uvillashi buzardi xolos.

- Siz zarba berishingizni istayman. - Qariyaning ovozi eski qog'ozning shitirlashini eslatardi. - Bilishimcha, siz aynan shu narsa bilan shug'ullanasiz.

- Sizga kim aytdi? - qiziqdi Xelston. Uning yoshi o'ttiz ikkida, barvasta qomatli edi. Ammo uning harakatlari yengil, xuddi inson qiyofasidagi akulaga o'xshardi.

- Menga Sol Lodjia ismli kishi aytdi. Siz uni tanir ekansiz. Xelston bosh irg'adi. Agar Sol tavsiya qilgan bo'lsa, demak, hammasi joyida.

- Kimga zarba berishim kerak?

Drogan aravachasidagi qandaydir tugmani bosdi va aravacha xuddi shisha ichiga qamalib qolgan pashsha singari ovoz chiqarib oldinga siljidi.

- Qurboningiz orqangizda turibdi, - dedi Drogan.

Xelston keskin harakat qildi. Hayoti tez harakat qilishga bog'liqligini bilgani uchun uning miyasi ham, gavdasi ham doim tayyor turardi. U divandan irg'ib turdi, bir tizzasini bilan cho'kkalab o'tirdi va shu bilan birga plashi cho'ntagidan 45-kalibrli to'pponchasini chiqarishga ham ulgurdi. Soniya ichida u to'pponchasini... mushukka o'qtaldi.

Xelston va mushuk lahza davomida bir-biriga qarab turishdi. Xelston uchun bu kutilmagan hol edi. Mushuk unga tanishdek ko‘rindi.

Uning tumshug‘i xuddi ikkiga bo‘lingandek: yarmi oq, yarmi qora edi. Yarim qorong‘i xonada uning ko‘zlari katta-katta, kamin shu‘lasi aks etgan qorachiqlari esa cho‘g‘dek ko‘rinardi.

Xelstonning miyasida g‘alati bir o‘y chaqnab o‘tdi: biz bir-birimizni bilamiz. U to‘pponchasini qo‘yniga soldi va o‘rnidan turdi.

- Sizni otib tashlashim mumkin edi, - dedi u Droganga. - Men hazilni yoqtirmayman.

- Men hazillashayotganim yo‘q, - javob qildi qariya. - o‘tiring. Mana buni oling. - U tizzasini yopib turgan adyol ostidan qalin xatjild oldi va Xelstonga uzatdi.

Xelston o‘tirdi. Mushuk uning oyog‘iga suykaldi. U bir oz Xelstonga qarab turdi, so‘ng g‘ujanak bo‘lib oldi.

Xelston savol nazari bilan Droganga qaradi.

- U o‘zini do‘stona tutadi, - dedi qariya. - Boshlanishiga. Bu mushuk uyimda uch kishini o‘ldirdi. Bitta men qoldim. Men qari, kasalman... Ammo ajalimdan besh kun burun o‘lishni istamayman.

- Ishongim kelmayapti, - ming‘irladi Xelston. - Siz meni mana shu mushukni o‘ldirish uchun yolladingizmi?

- Marhamat, xatjildni oching.

Xelston uni ochdi. Xatjild yuz va ellik dollarlik pullarga to‘la edi. U uch minggacha sanab, sanoqni to‘xtatdi.

- Bu yerda qancha bor?

- Olti ming dollar. Qolgan olti mingini esa mushuk... yo‘q qilinganligini isbotlaganingizdan so‘ng olasiz. Janob

Lodjia siz ishingiz uchun shuncha pul olishingizni aytgandi.

Xelston jimgina bosh irg‘ab tizzasiga chiqib mudrayotgan mushukni siladi. Xelston mushuklarni yoqtirardi. Unga yoqadigan yagona jonivor desa ham bo‘ladi. Ular yolg‘iz yurishadi. Xuddi Xelston kabi.

- Sizga hech narsani tushuntirmasligim ham mumkin edi, - dedi Drogan. - Ehtiyotkorlik - qurollanish demakdir, bu ishga mensimay qarashingizni istamayman. Bundan tashqari, o‘zimni oqlash uchun sabablar ham bor.

Shunchaki, sizga tentakday ko‘rinishni xohlamayman.

Xelston yana bosh silkidi. U ichida bu ishni osonlik bilan amalga oshirishiga ishonch hosil qilib bo‘lgandi, ortiqcha izohga hojat yo‘q edi. Ammo Drogan gapirmoqchi ekan, mayli, eshitadi.

- Kimligimni bilsangiz kerak? Pulni qaerdan topishimni?

- Drogan dori ishlab chiqarish korxonalari, - dedi Xelston.

- Ha. Amerikaning eng yirik dori ishlab chiqaruvchi kompaniyalaridan biri. Bizning moliyaviy muvaffaqiyatimiz asosi esa mana bu. - U xalati

cho‘ntagidan shishacha chiqardi va Xelstonga uzatdi. -

Tri-dormal-fenobarbin, «J» tarkibi, - dedi Drogan.-

Tuzalishiga umid qolmagan bemorlar uchun

mo‘ljallangan. U og‘riq qoldiruvchi dori. Umidsiz bemorlarga yaxshi ta‘sir ko‘rsatadi.

- Siz ham shundan ichasizmi? - so‘radi Xelston.

Dragon uning savolini javobsiz qoldirdi.

- Dori butun dunyo bo‘yicha keng tarqalgan. U elliginchi yillarda bizning Nyu Jersidagi tajribaxonamizda yaratilgan. Biz dorini mushuklarda sinab ko‘rganmiz, chunki ularning asab tizimi murakkab tuzilgan.

- Nechta mushukni shu tarzda narigi dunyoga jo‘natgansiz?

Drogan qunishdi.

- Bunday savol berishingiz noto‘g‘ri.

Xelston yelkasini qisdi.

- Dori ishlab chiqarilgan va federal farmatsevtika assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlanguniga qadar o‘tgan to‘rt yil davomida besh mingta mushuk... e-e, yo‘q qilingan.

Xelston hushtak chalib yubordi. U mushukni asta silardi.

- Endi esa, bu mushuk sizni o‘ldirgani kelgan, shunday deb o‘ylayapsizmi?

- Men o‘zimni aybdor hisoblamayman, - dedi Drogan, uning ovozi qaltirab chiqdi. - Besh mingta mushuk yuz minglab insonlar hayotini saqlab qolish uchun qurbon qilingan.

- Keling, bas qilaylik, - dedi Xelston. U o‘zini oqlashlarga toqat qilolmasdi.

- Mushuk uyimizda yetti oy ilgari paydo bo‘ldi, - davom etdi Drogan. - Shaxsan menga u hech ham yoqmasdi.

Infektsiya tashuvchi mavjudot... Duch kelgan joyda yuraveradi... Yoki axlat titadi... Opam uni boqmoqchi bo‘ldi. Hammasi o‘shandan boshlandi. Opamga bu qimmatga tushdi. - U mushukka nafrat bilan qaradi.

- Siz mushuk uch kishini o‘ldirganini aytgandingiz.

Drogan qaltiroq ovoz bilan hikoyasini boshladi. Mushuk Xelstonning tizzasida uxlar, qotilning kuchli barmoqlari uni silardi. Ba’zi-ba’zida kamin ichida yonayotgan o‘tin chirsillab ovoz chiqarar, shunda mushukning muskullari xuddi po‘lat prujinadek tarang tortardi. Tashqarida sovuq shamolning uvillashi eshitilardi. Bu shamol qish sovug‘ini

yetaklab kelayotgandi. Qariyaning ovozi esa borgan sari g'ijirlab chiqardi.

Yetti oy ilgari ular bu yerda to'rt kishi edilar: Drogan, yetmish to'rt yoshli opasi Amanda, dugonasi Kerolayn Brodmur va uyda yigirma yildan beri xizmat qiladigan Richard Geyj. Yoshi oltmishdan oshgan Geyj «Linkoln» mashinasini haydar, ovqat tayyorlar va kechki payt ichimlik keltirardi. Kunduzi xizmatkor ayol kelib-ketardi. Shu tarzda ular to'rttalasi o'ziga xos boy qariyalar jamoasi sifatida ikki yilga yaqin yashab kelishdi. Ularning yagona mashg'uloti kutish edi - kim kimdan uzoqroq yashaydi. Keyin esa mushuk paydo bo'ldi.

- Birinchi bo'lib uni Geyj ko'rib qoldi, - so'zida davom etdi Drogan. - Dastlab u mushukni haydashga urindi, uni tosh, tayoq bilan urib haydadi. Ammo mushuk ketmadi. Uni ovqat isi o'ziga tortardi. O'zi ham terisi suyagiga yopishib ketgan mushuk edi. Unaqa mushuklarni mashina yo'liga ochidan o'lsin deb tashlab ketishadi. Jonivorni ochidan o'lishga majbur qilish - qanday dahshat, shafqatsizlik.

- Nima, undan ko'ra ularning asab tizimini sinab ko'rgan ma'qulroqmi? - so'radi Xelston.

Drogan uning savolini eshitmaganga oldi va hikoyasini davom ettirdi. Uning mushuklarni ko'rgani ko'zi yo'q edi. Mushuk ketmasligi ma'lum bo'lgach, u Geyjga mushukni zaharlashni buyurdi - mushuklar ovqatiga tri-dormal-fenobarbin aralastirib berdi. Bu ovqatga mushuk qarab ham qo'ymadi.

- Bu vaqt ichida Amanda Drogan mushukni ko'rib qoldi va uni boqaman deb turib oldi. Droganning o'zi bunga

qarshilik qildi, ammo opasi ustun keldi. Opasi doim bunga erishardi.

- Ha, Amanda aytganini qildi, - dedi Drogan. - Mushukni uyga olib kirdi. U xuddi hozir sizga suykalayotgandek Amandaga suykalardi. Lekin mening yonimga biror marta yaqinlashmadi. Ha, yaqinlashmadi... hozircha. Opam unga idishga sut quyib berardi. «Bechora och qolibdi», - opam yig'lab yuboray degandi uning sut ichishini ko'rib. U va Kerolayn mushukning atrofida parvona edilar. Ular mushuklarni yomon ko'rishimni bilganlari uchun mening jig'imga tegishardi. - U Xelstonga qayg'uli nazar tashladi. - Ammo bu ularga qimmatga tushdi.

May oyining o'rtalarida Geyj odatdagidek uydagi chiroqlarni yoqish uchun soat oltida o'rnidan turdi. Uning qichqirig'i Droganni ham, Kerolaynni ham uyg'otib yubordi. Amanda Drogan zina oldida likop siniqlari va «Mushukchalar» qutisi - mushuklar uchun ovqat - ustida yotardi. Uning qorachiqlari shiftga tikilganicha qotib qolgandi. Uning og'zi va burnidan qon oqib yotardi. Amandaning umurtqasi, bir oyog'i singan, bo'yni esa majaqlanib ketgandi.

- Mushuk uning xonasida uxlardi, - dedi Drogan. - Menimcha, u Amandani miyovlab uyg'otgan, Amanda likop olib pastga yo'l olgan - unga mushuk «Mushukchalar» ovqatini quruq yemaydiganga o'xshardi. Shuning uchun sutga aralashtirib berardi. U likopga sut quyish uchun pastga tushmoqchi bo'lgan. Amanda zina chetiga yetib kelganida mushuk uning oyog'iga tashlangan. Amanda qarib qolgan, oyoqlari kamquvvat edi. Buning ustiga uyqusirayotgan bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, mushuk uni chalib yuborgan...

«Ha, - o‘yladi Xelston, - shunday bo‘lgan bo‘lishi mumkin...» U kampirning zinadan dumalab tushayotganini, qichqirishga ham ulgurmaganini tasavvur qildi. «Mushukchalar» atrofga sochiladi, likop sinadi, kampir esa polga gursillab tushadi. Uning suyaklari sinadi. Mushuk esa atrofga sochilib yotgan ovqatni yeyish uchun pastga tushadi...

- Tergovchi nima dedi? - so‘radi Xelston.

- Baxtsiz hodisa. Lekin men bilardim.

- Lekin nima uchun mushukni yo‘qotmadingiz?

Amandaning o‘limidan so‘ng?

Chunki u agar mushukni yo‘qotsa, Kerolayn Brodmur uydan ketishini aytgandi. U kasal edi, vaqt-vaqti bilan u turli bema’ni xayollarga o‘ralashib qolardi. Bir kuni u Droganga Amandaning ruhi mushukka o‘tganini aytgandi. Xelston birovlarining fikrini o‘qishga usta edi, shuning uchun ham u Drogan va Kerolayn Brodmurlar bir paytlar o‘ynash bo‘lishganini, bir mushuk uchun qariya undan ajralishni istamaganini darhol angladi.

- U rostdan ham ketib qolishi mumkin edi. Bu esa o‘z joniga suiqasd qilish bilan teng, - dedi Drogan. - Axir uning hech kimi yo‘q edi. U bu yerda ikkinchi qavatda yashardi. U yetmishga kirgandi, janob Xelston. Men uning shu yerda qolishini istadim va mushuk ham qoldi... Xelston bosh irg‘ar va soatiga qarab qo‘ydi.

- U iyun oxirlarida o‘ldi, - dedi Drogan, - o‘lim uyqu paytida yuz bergan. Shifokor bunga xotirjamlik bilan yondoshdi... Shunchaki kelib o‘lim haqidagi dalolatnomani qayd etib ketdi, bor-yo‘g‘i shu. Lekin uning xonasida mushuk bo‘lgan! Bu haqda menga Geyj aytdi.

- Lekin kampir baribir kasallikdan o'lishi kerak edi-ku, - dedi Xelston.

- Albatta, - dedi Drogan yuzini burishtirib. - Shifokor ham aynan shunday dedi. Lekin men bilaman. Hammasi esimda. Onam aytib bergandi. Mushuklar qariyalar va chaqaloqlarni aynan ular uxlashayotganda o'ldirishni xush ko'rishadi. Ularni bo'g'ib o'ldirishadi.

- Bu afsona-ku, shunday emasmi?

- Boshqa afsonalar singari haqiqatga asoslangan afsona, - e'tiroz bildirdi Drogan. - Mushuklar tirnoqlari bilan yumshoq narsalarni yumdalashni yoqtirishadi. Yostiq, qalin gilam yoki... adyol. Chaqaloqlarning yoki qariyalarning adyolini. Zaif odamning ustida qo'shimcha yuk bo'lishadi...

Drogan jim bo'lib qoldi, Xelston esa bu manzarani tasavvur qildi. Kerolayn Brodmur xonasida uxlayapti, uning kasal o'pkasidan xirillab nafas chiqyapti. Oq-qora tumshuqli mushuk uning ustiga sakrab chiqadi va qariyaning ajin bosgan yuziga cho'g'dek ko'zlarini tikadi. So'ngra u kampirning qoqsuyak ko'kragiga yotib oladi... Nafas asta-sekin to'xtaydi... Mushuk esa kampirning joni uzilishini kuzatib turadi.

U ancha-muncha narsadan ta'sirlanmasdi, ammo xayolidagi manzaradan eti jimirlab ketdi.

- Drogan, - Xelston mushukni silashda davom etdi. - Lekin ayting-chi, nima uchun veterinarga olib borib, o'sha yerda o'ldirtirmadingiz? Amakim o'tgan yili itidan shunaqa qilib qutulgandi va bu unga yigirma dollarga tushgan.

- Ko'mish marosimi birinchi iyul kuni bo'lib o'tdi, - Drogan Xelstonni eshitmayotgandek edi. - Kerolaynni

opamning yoniga koʻmdik. Uchinchi iyul kuni Geyjni shu xonaga chaqirdim va unga mushuk solingan xaltani berib Milforddagi veterinarga olib borishini buyurdim. U «Xoʻp boʻladi, ser», dedi va xaltani olib chiqib ketdi. Uni shundan soʻng tirik koʻrmadim. «Linkoln» soatiga oltmish mil tezlikda koʻprikning beton toʻsigʻiga urilgan. Dik Geyj til tortmay jon bergan.

Uning yuzida sanoqsiz shilingan jarohatlar boʻlgan. Xelston jim boʻlib qoldi. Uning xayolida navbatdagi dahshatli manzara paydo boʻldi.

Dik Geyj «Linkoln»da Milford tomon burilishga yaqinlashyapti. Uning yonidagi oʻrindiqlarda xalta turibdi. Dikning eʼtibori yoʻlga qaratilgan, ehtimol u yuk mashinasini quvib oʻtayotgani uchun eski xaltani yirtib chiqqan oq-qora tumshuqli mushukni sezmay qolgandir. U yuk mashinasini quvib oʻtayotgan paytda mushuk uning yuziga tashlanadi va oʻtkir tirnoqlari bilan chang soladi. Yovuz panjalar uning koʻzini oʻyib olish uchun choʻziladi. «Linkoln» oʻng tomonga ogʻadi, yuk mashinasi haydovchisi jon holatda signal chaladi, ammo Dik hech narsani eshitmaydi. Ulkan oʻrgimchak misol bu maxluq Dikning yuziga butun tanasi bilan yopishib olgan. Uning yashil koʻzlari xuddi doʻzax chiroqlaridek yonadi, ogʻzidan koʻpik sachraydi, kuchli orqa oyoqlari qariyaning boʻyniga tirnoqlarini botiradi. Geyj koʻprik chetiga urilayotganini koʻrish tugul anglab ham yetmaydi. Mushuk mashinadan sakraydi, «Linkoln» esa oʻqdek kelib beton toʻsiqqa uriladi. Geyj mashina ruliga uriladi va koʻkragi majaqlanadi...

Xelston gʻalati tovush chiqarib yutindi.

- Mushuk qaytib keldimi? - ming'irladi u. Drogan bosh irg'adi.

- Bir haftadan keyin. Aniqrog'i, Dik Geyjni ko'mishgan kuni.

- U avtohalokatda ham tirik qolibdimi? Soatiga oltmish mil tezlikda-ya? Bunga ishonish qiyin.

- Aytishlaricha, ularning to'qqizta joni bo'larkan. O'shandan so'ng men uning iblis mushuk ekanligini o'ylab qoldim. U meni...

- Jazolamoqchimi?

- Bilmadim. Lekin shundan qo'rquyapman. Men uni boqaman, to'g'rirog'i - uyni yig'ishtiradigan ayol. Bu mushukni o'sha ayol ham yoqtirmaydi. Uning aytishicha, bunday tumshuqli mushuk qarg'ish ekan. Tangrining qarg'ishi. Uni o'ldirishingizni istayman, - dedi qariya. - U bilan yashayotganimga to'rt oy bo'ldi. U tunlari xonamga kiradi. U meni kuzatadi. Chamasi, u... Kutyapti. Oxir-oqibat men Sol Lodjia bilan gaplashdim va u sizni tavsiya qildi. Sizni u...

- Yolg'iz ish qiladi, dedimi? Ya'ni, sherigim yo'q.

- Ha. U yana shunday dedi: «Xelston hech qachon qo'lga tushmagan. Hattoki undan birov shubha ham qilmagan. U doim yerga oyog'i bilan tushadi... Xuddi mushukka o'xshab».

Xelston qariyaga qaradi. Kutilmaganda uning barmoqlari mushukning belini siqdi.

- Yo'q! - qichqirdi Drogan. U hansirab nafas olardi. Uning rangpar yonoqlari qizarib ketdi. - Yo'q... Bu yerdamas.

Xelston ma'yus jilmaydi. U mushukni ohista silay boshladi.

- Yaxshi, - dedi u, - kelishdik. Uning jasadi kerakmi?  
- Xudo haqqi, yo‘q! - qichqirdi qariya. - Uni o‘ldiring!  
Ko‘mib tashlang! - U bir oz jim turdi. - Menga uning faqatgina dumi kerak,- dedi u. - Uni o‘tga tashlab, qanday yonishini tomosha qilmoqchiman.

Xelston o‘zining 1972 yilda ishlab chiqarilgan «Mustang» avtomobilida ketayotgandi. Droganning uyidan u soat to‘qqiz yarimlarda chiqqandi. Noyabr oqshomining uvada bulutlari orasidan sovuq oy ko‘rinib turardi. Mashinaning barcha oynalari ochiq edi. Sovuq xuddi pichoqdek Xelstonning badaniga sanchilar, ammo bu unga xush yoqardi.

U Pleysers-Glendan burildi va shahardan tashqariga chiqdi. Xelston tezlikni soatiga o‘ttiz besh mildan oshirmasdi. 35-shossega yetgachgina u «Mustang»iga erk berdi. Endi mashina soatiga yetmish mil tezlikda yurib borardi.

Mushuk ikki qavatli xo‘jalik xaltasida yotar, xalta kanop ip bilan mahkam bog‘langandi. Falati topshiriq, o‘yladi Xelston va buni topshiriq deb hisoblayotganidan o‘zi ham ajablandi. Eng g‘aroyibi, mushuk unga juda yoqqandi. U uch nafar qariyani o‘ldiribdimi, demak uning quvvati ozmuncha emas ekan... Ayniqsa, uni veterinar bilan «uchrashuv»ga olib ketayotgan Geyj haqida gapiradigan bo‘lsak. Xelston shartnomani bajarmaslik niyatida bo‘lmasa-da, mushukni o‘ziga yaqin sezdi. U mushukni tezda va mohirona o‘ldiradi. Mashinani dala chetida to‘xtatib, mushukni xaltadan chiqaradi, uning bo‘ynini sindiradi, so‘ngra qariyaga ko‘rsatish uchun dumini kesib oladi. Keyin esa, o‘yladi u, mushukni ko‘maman.

U mana shularni o‘ylayotgan daqiqalarda mushuk qo‘qqisdan uning ro‘parasida paydo bo‘ldi - uning oq-qora tumshug‘i vahshiyona jiyirilgandi.

- Jin ursin! - dedi Xelston beixtiyor xaltaga qarab - ikki qavatli xaltada katta teshik paydo bo‘lgandi. U yana ro‘parasiga qaradi va xuddi shu lahzada mushuk uning yuziga chang soldi. U o‘zini orqaga tashladi... Va «Mustang» g‘ildiraklarining chiyillashini eshitdi.

Mashina u yoqdan-bu yoqqa chayqaldi. Xelston mushukni bor kuchi bilan urdi, yirtqich pixilladi, lekin joyidan jilmadi. Xelston uni yana urdi, mushuk esa qochish o‘rniga uning yuziga sapchidi.

«Geyjdaqa bo‘ldi, - o‘yladi Xelston. - Xuddi Geyjdaqa». U tormozni bosdi. Mushuk uning boshida o‘tirganicha tirnoqlarini yanada chuqurroq botirishga urindi. Uning qorni Xelstonning ko‘zini to‘sib qo‘ygandi. U mushukni urdi, keyin yana, yana urdi. Shu lahzada u kuchli zarbadan qalqib tushdi. U mushukka yana zarba berishga kuch topdi, lekin qo‘li mushukning baquvvat muskullariga ta’sir qilmadi. Uning qo‘li sirg‘alib pastga tushdi.

Shuning barobarida uning ongi zulmat qa’riga singib ketdi.

Oy ufq ortiga yashirinayotgandi. Tong otishiga bir soatcha vaqt qolgandi. «Mustang»ning old qismi temir-tersak uyumiga aylangandi.

Xelston asta-sekin o‘ziga kela boshladi. U ko‘zini ochib birinchi ko‘rgan narsasi tizzasida o‘tirgan mushuk bo‘ldi. U xotirjam miyovladi va yashil ko‘zlarini Xelstonga qadadi. Xelston oyoqlarini his qilmadi.

U mashinaning old qismi pachoqlanganini, dvigatelning bir qismi uning oyoqlarini majaqlab tashlaganini, o'zini esa o'rindiqqa qisib qo'yganini ko'rdi. Qaerdadir boyqush sayradi.

Mushuk unga tirjayayotgandek ko'rindi.

Xelston uning o'rnidan turib kerishganini ko'rdi.

Kutilmaganda mushuk Xelstonning yelkasiga sakradi. U mushukni yulqib olish uchun qo'lini ko'tardi. Lekin qo'li harakatga kelmadi.

«Umurtqam, - o'yladi u xuddi malakali shifokorlardek. - Umurtqa suyagim sinibdi. Men falajman».

Mushuk uning quloYoiga mig'vladi va bu miyovlash unga momaqaldiraqdek tuyuldi.

- Yo'qol! - qichqirdi Xelston. Uning ovozi quruq chiqdi. Mushuk bir lahzaga sergak tortdi. Birdan uning tirnoqlari Xelstonning yonoqlarini tildi. Kuchli og'riqdan uning tomog'iga bir narsa tiqilgandek bo'ldi. Issiq qon oqdi. Sezish qobiliyati yo'qolmabdi.

U boshini o'ngga burdi. Uning yuziga yumshoq yung urildi. Xelston mushukka baqirdi. Mushuk o'rindiqqa sakradi. U nafrat to'la ko'zlarini Xelstondan uzmasdi.

- Bunday qilmasligim kerak edimi? - xirilladi Xelston.

Mushuk tishlarini irjaytirdi. Xelston Drogan nima uchun uni iblis mushuk deb ataganini tushundi. U... Tirsaklari va yelkasida og'riq turib uning fikri bo'lindi.

Sezish qobiliyati tiklanyapti.

Mushuk tirnoqlarini chiqarib uning yuziga otildi.

Xelston ko'zlarini yumdi va og'zini ochdi. U mushukni qornidan tishlamoqchi edi, ammo bir parcha yungni tishlashga ulgurdi, xolos. Tirnoqlar uning quloqlariga

sanchildi. Chidab bo‘lmas og‘riq turdi. Xelston qo‘llarini ko‘tarishga urindi. Qo‘llari sal qimirladi, ammo tizzasidan ko‘tarilmadi.

U boshini oldinga egdi va cho‘milib chiqqan odamdek silkidi. Mushuk mahkam yopishib olgandi. Xelston yonoqlaridan qon oqayotganini his qildi. Quloqlari xuddi o‘t ichida qolgandek qiziyotgandi.

U boshini orqaga tashladi va baqirib yubordi - uning bo‘yni endi og‘rib ketdi. Lekin mushukni boshidan tushira olishga erishdi.

Xelstonning bir ko‘ziga oqayotgan qon kirdi. U ko‘zini ishqalash uchun qo‘lini ko‘tarishga urindi. Uning qo‘llari qaltiradi, ammo tizzasidan ko‘tarilmadi. U qo‘ltig‘i ostida 45-kalibrli to‘pponchasi turganini esladi.

«Agar to‘pponchamni chiqara olsam, sening to‘qqizta joningdan asar ham qolmaydi».

Qo‘lida yana og‘riq turdi. Dvigatel majaqlagan oyoqlarida ham sanchiq turdi.

«Balki zahirada jonim qolgandir?»

Endi mushukni bir yoqli qilish kerak. Eng asosiysi shu. Keyin mana bu temir-tersak ichidan chiqib olish kerak - balki birortasi shu atrofdan o‘tib qolar. Bu kimsasiz yo‘ldan birov o‘tishi, ayniqsa sahar soat beshda o‘tishi amrimahol, ammo jinday bo‘lsa-da imkoniyat qolgan edi. Va... Mushuk nima qilyaptikin?

U mushukning yana yuziga sapchishini istamasdi, ammo uning orqada, nazardan chetda turishini ham xohlamasdi. U peshoyna orqali mushukni ko‘rmoqchi bo‘ldi, biroq hech narsa chiqmadi. Peshoyna zarba ta’sirida qiyshayib qolgan, unda yo‘l cheti ko‘rinib turardi.

Xelston kuta boshladi. Sezgilari qayta boshladi. Tong otib kelayotgandi. Qaerdadir qush sayradi.

Xelston qo‘lini qimirlatib ko‘rdi, ammo tizzasidan sal yuqori ko‘tara oldi, xolos.

Yon o‘rindi qandaydir tovush eshitildi. Xelston yoniga o‘girildi va cho‘g‘dek yonayotgan ko‘zlarni ko‘rdi.

Xelstonning u bilan gaplashgisi keldi. - Hali biror marta topshiriqni uddalamagan kunim bo‘lmagan, - dedi u. - Bu mushukcha birinchisi bo‘lishi mumkin edi. Lekin tez orada qo‘llarim o‘ziga keladi. Besh, bor ana, o‘n daqiqadan so‘ng. Maslahat beraymi? Oynadan o‘zingni tashla. Hamma oynalar ochiq. Tezda o‘zingni ol.

Mushuk undan ko‘zini uzmasdi. Xelston yana qo‘lini qimirlatib ko‘rdi. Qo‘li bir yarim santimetrcha ko‘tarildi. Mushuk unga qarab tishlarini irjaytirdi.

Mushuk nima qilmoqchi ekanligini tushungan Xelston bor kuchi bilan qichqirish uchun og‘zini ochdi.

Mushuk uning yuziga o‘qdek otildi. Shu lahzada Xelston nihoyat, mushuk o‘ldirish istagida yonayotgan maxluq ekanligini tushunib yetdi.

U ola-bula qotilning nafrat to‘la nigohini ko‘rdi. U uch nafar qariyani tinchitgan, endi uning, Jon Xelstonning navbati kelgandi.

Mushuk to‘g‘ri uning og‘zini nishonga olib sapchigandi. Xelston o‘qchib yubordi. Uning oq-qora tumshug‘i allaqachon Xelstonning og‘zi ichida edi.

Xelstonning tanasi bir silkinib tushdi. So‘ng yana bir marta. Kaftlari musht bo‘lib tugildi, keyin asta bo‘shashdi. Ko‘zlari esa shishadek qotib qoldi.

Uning og‘zidan oq-qora dumning uchi chiqib turardi. Keyin esa dum g‘oyib bo‘ldi.

Qaerdadir yana qush sayradi... Tez orada Konnektikut dalalari tong nuridan yorishdi.

Fermerning ismi Uill Ross edi.

U dalada qolgan traktorini ta'mirlash uchun ketayotgandi.

Tong yorug'ida u yo'l chetida turgan mashinani ko'rdi.

- E, Xudo, o'zing asra!

Rulda o'tirgan kishining yuzi qonga bo'yalgandi. Qotib qolgan nigohlar uzoq-uzoqlarga tikilib turardi.

Uill ruldagi kishining hujjatlarini ko'rish maqsadida uning plashi cho'ntagini titkilamoqchi bo'ldi. U endigina qo'lini cho'zgan ham ediki, murdaning qorin qismi do'ppayib turganini ko'rdi.

- Bu nimasi? - dedi Ross. U jasadning ko'ylagini ko'tardi va ko'rgan narsasi bir umrga yodida qoldi.

Uill Ross bo'kirib yubordi. Xelstonning qorni yorilgan va uning ichida mushukning qonga bo'yalgan boshi ko'rinib turardi. Mushukning ko'zlari Uillga Yoazab bilan tikilgandi.

Ross qichqirganicha o'zini orqaga tashladi. Bo'm-bo'sh daladan o'nlab qarg'alar cho'chib osmonga ko'tarilishdi. Mushuk tashqariga chiqdi va kerishdi.

So'ngra esa yugurib ketdi. Ross uni kuzatib qoldi.

Mushuk shudring bosgan o'tlar ustidan chopib borardi.

Go'yoki uning tugallanmagan yana qandaydir zarur ishi bordek edi.

## ДАҲШАТЛИ ЁМҒИР

Кундузги соат беш яримда эр-хотин Жон ва Элиза Грэмлар ниҳоят Майн штати (АҚШ) марказидаги кичкина шаҳарча, Виллога борадиган йўлни топишди. Шаҳарча Хемпстид Плейсдан бор йўғи беш мил узоқда эди. Бироқ улар икки марта бошқа йўлдан юриб адашиб кетишган эди. Шунинг учун ҳам Виллога етиб келишганида улар анча ҳолдан тойган, пешоналаридан тер қуйиларди. Бундан ташқари улар Сент-Луисдан йўлга чиқишганида машиналарини кондиционерни бузилиб қолганди. Лекин Виллода хаво анча нам эди.

–Милли Козинс бизга айтган бозор шу бўлса керак деб тўғридаги бинога ишора қилди Элиза.  
– Ха, уни замонавий супермаркет деб бўлмайди деб тиржайди Жон.

Жон ва Элизанинг турмуш қурганига икки бўлди. Улар бир-бирини қаттиқ севишади. Жон ёзги татилни Майнда ўтказишни режалаштирганди. Бироқ Сент-Луисдан бу ерга келиш анча чўзилиб кетди. Жон бош кўча бўйлаб секинлик билан Вилло Савдо Марказига қараб машинасини хайдаб борди. Бир бино тепасига кўк бургут шаклидаги белги осилган эди. Жон бу бино почталигини тушинди. Шаҳарда на пиёдалар на машиналар кўринарди. Бу ерда худди хаёт тўхтагандек жим-житлик ҳукм сурарди.

– Мен ёзги татилни Майнда ажойиб тарзда ўтказамиз деб ўйлагандим деб эрига минғирлади

Элиза.

– Шунча йўл босганимизга яраша Виллода оз бўлсада дам оламиз деб умид қиламан деди Жон атрофни томоша қилиб. Улар машинадан тушиб Савдо Маркази биноси томонга юришди. Бино ёнидаги похол шляпали, катта ёшдаги бир киши ўткир мовий кўзлари билан уларни кузатиб турарди. У қўлбола сигаретасини тутатиб ўтирар, оёқлари остида эса унинг катта, сариқ зоти номаълум ити думини ликиллатганича у ёқдан бу ёққа айланар эди.

– Салом ёшлар! деди қари жаноб хушмуомалалик билан.

– Салом деди Элиза.

– Салом деди Жон хам. Мен...

– Жаноб Грэм деб Жоннинг гапини бўлди қария. Жаноб ва хоним Грэм. Сизлар бу ерга ёзги татилда дам олиш учун келган бўлсангиз керак. Китоб ёзганингиз ҳақида хам эшитгандим.

– Ҳа, “Ўн саккизинчи асрдаги француз иммиграцияси ҳақида” деб унинг гапини тасдиқлади Жон.

– Атрофга гап йўқ! Шундайми?

– Албатта! Дам олиш учун зўр жой! Сиз билмайдиган кичкина шаҳарча. Шундай деб қария сигаретасини тутатди..

– Хотиним бунақа сигарета чекишимни истамайди. Айтишича бу нарса саратонга олиб келар экан.

– Биз шахрингизга егулик ва ёқилғи олиш учун келдик деди Элиза.

- Эҳа, эсим қурсин! Сизларга айтишни унитибман. Мен Генри Эденман. Сизлар билан танишганимдан хурсандман. Сизларни бир ярим соатдан буён кутаман. Афтидан бу кичик шаҳарчага олиб борадиган барча йўллардан бирма-бир юриб чиққанга ўхшайсиз. Шундай деб у хириллаб кулди. Унинг бундай бетакаллуфлигидан Жоннинг қовоғи уйилди.
- Хўш нега бизни кутаётган эдингиз?
- Льюси Досетте исмли бир аёл бу ерга янги саёҳатчилар келаётгани хақида хабар қилганди. Сиз Льюсини танимайсиз аммо айтишича унинг жиянини яхши билар экансизлар.
- Милли Козинснинг хола-бувисини айтмаяпсизми мабодо ? деб сўради Элиза.
- Худди шундай. Виллода барча бири бири билан алоқада бўлиб туради. Льюси йўл бўйидаги тепалик этагида яшайди деди Эден. У бироз ўйланиб қолди.
- Сиз иккалангиз бугун тунни шаҳар ташқарисида ўтказганингиз мақул деб ўйлайман деди Генри ниҳоят.
- Шаҳар ташқарисида? Нега бундай қилар эканмиз? Ахир бу шаҳарга энди келдик. Биз шу ерда дам олмоқчимиз деди Жоннинг жахли чиқиб.
- Бу яхши фикр эмас! деган овоз эшитилди Эденнинг орқасидан. Грэмлар атрофга аланглашди ва дўкон ичидан чиқиб келаётган озғин, қари бир аёлни кўришди. У анча тушкун кайфиятда эди.

- Мен Лаура Стентонман деб ўзини таништирди у. Одам иси ёқмас экан деб ўйламанг аммо бугун тунда бу ерда дахшатли ёмғир ёғади. Шунинг учун бу ерда қолишингиз хавфли. Элиза осмонга қаради. Кичкина булутчаларни хисобга олмаганда осмон мусаффо эди.
- Хайрон қолишингиз табиий. Аммо hozir кўриб турганингиз хеч нимани англатмайди деди Лаура Стентон.
- Кечирасиз. Гапларингизнинг бирортасига хам тушинмадим. Бу махаллий халқ ҳазилларидан бирими? деб сўради Элиза унинг гапларидан боши қотиб.
- Виллода хар етти йилда бир дахшатли ёмғир ёғади деб гапида давом этди Лаура.
- Ўн еттинчи июньда! Орага суқилди қария Генри.
- Бу дахшатли ёмғир хар етти йилда бир, ўн еттинчи июньда ёғади. Фақат ўн еттинчи июнда, бошқа кунда эмас. Шунингдек фақат бир кечагина ёғади. Нега шундайлигини биласанми, Лаура?
- Йўқ, билмайман. Гапга аралашишни бас қил Генри! Қариб ақлдан озибсан! деб унга шанғиллади Лаура Стентон.
- Ха, бўпти узир деб ундан ранжиди қария. Элиза Жонга бироз кўрқув билан қаради.
- Бу одамлар устимиздан кулишяптими? Ёки иккови хам ақлдан озганми? деди у эрига. Жон хам хеч нарсага тушинмаётган эди.
- Хўш, гапларимни эшитинг деди Лаура Стентон мулойимлик билан. Агар истасангиз Вулвич

Роддаги Вондервю мехмонхонасидан сизларга хона гаплашиб бераман. У ерда хозир жой тўлган лекин мехмонхона бошқарувчиси менинг холаваччам. У мен учун битта хона топиб беришига ишончим комил.

– Бунинг барчаси шунчаки ҳазил, шундайми? Мен ҳеч нарсага тушунмаяпман деди Жон.

– Йўқ, бу ҳазил эмас. Хар етти йилда ёғадиган бу ёмғир оддий ёмғир эмас, қурбақалар ёмғири!

– Қурбақалар?! деди Элиза хайрон қолиб. Мен гўёки туш кўраётгандекман. Жон атрофга нажот билан қаради. Лекин кўчада ҳеч ким йўқ эди. “Бу ерда бир балога йўлиқишимиз аниқ” деб ўйлади у. “Агар бу одамлар чиндан ҳам ақлдан озишган бўлса аниқ муаммога учрадик.”

– Ҳозир сизга айтаётган гапларим ахмоқона туйилаётган бўлиши мумкин бироқ мен ҳам Генри ҳам шунчаки ўз ишимизни бажаряпмиз деди Лаура Стентон.

– Буёққа кел! Жон хотинининг биллагидан ушлаб четга тортди. – Сизлар билан учрашганимдан хурсандман шундай деб у Генри ва Лаурага сохта табассум қилганича Элизани олдига солиб олиб кетди.

– Бунга ишонишингиз бироз қийин деди Лаура уларнинг ортидан. – Эхтимол бизни ақлдан озган тентак деб ўйлаётгандирсиз лекин бу айна ҳақиқат. Виллода хар етти йилда бир қурбақа ёмғири ёғиши ҳақида эшитган инсонлар ҳам бўлса керак. “Эй худойим нега Сент-Луисдан кетдим-а?” деб ўзига ўзи минғирлади

Жон. Бузилган кондиционерли машинада деярли ўн беш минг чақирим йўлни мана шу икки телбани кўриш учун босиб ўтган экан-да, шўрлик.  
– Элиза! Кетдик бу ердан! Жон машинасига ўтирди. Эр-хотин Грэмлар чол-камбир билан хайрлашишди ва машиналарига ўтириб жўнаб кетишди.

– Кетиб тўғри қилишди. Шундай қилишса уларга яхши бўлади деди қария.

– Ўзимни жуда ёмон хис қиляпман. Ёмон иш бўлди. Улар жуда яхши инсонларга ўхшайди деб афсус билан уларнинг ортидан қараб қолди Лаура.

Эр-хотин Грэмлар қўшни шаҳарча Вулвичга боришди. Бу ерда Виллога қараганда анча яхши эди. Кўчалар машиналар ва одамлар билан гавжум, шаҳарда хаёт қайнарди. Жон ва Элиза истирохат боғидаги майса устида овқатланишди.

– Ўша одамлар хақида нима дейсиз, Жон?

– Менимча буларнинг барчаси бемани хазиллар. Бу ерлардаги маҳаллий халқ сайёҳлар билан ўйин қилишни ёқтиради деди Жон.

– Аммо улар менга жиддий кўринганди деди Элиза бироз ўйланиб. – Ахир шаҳар хувиллаб ётганди. Сизнингча ўша шаҳарчадаги қолган аҳоли қаерда?

– Бирор бир муассасанинг очилиш маросимига ёки бошқа бирорта зиёфатда бўлишса керак деди Жон ва Элизанинг идишига қаради.

– Хеч нарса емабсанку севгилим!

– Оч эмасман деди Элиза бироз хомуш тортиб.

- Ахир сенга айтдим-ку уларнинг гаплари барчаси бемани хазил деб. Шундай деб Жон рафиқасиниг кўлларидадан ушлади.
- Сиз чиндан хам шундай деб ўйлайсизми?
- Ха, мен шундай фикрдаман. Дахшатли қурбақа ёмғири эмиш, шу хам гапми?
- Нега бундай деб ўйлаяпсиз?
- Чунки бу одамлар ўзларини тинчлигини ўйлаб шунга ўхшаш чўпчакларни тарқатишади.
- Лекин ўша кампирнинг гаплари хазилга ўхшамасди. Тўғриси айтсам унинг гаплари мени вахимага солиб қўйди.
- Ха , бу кўриниб турибди деди Жон бу сафар жиддийлашиб. – Очиғи бундай ахлоқликларга тоқатим йўқ лекин кимдир рафиқамнинг юрагига вахима солибдими бу мен учун дахшат. Мен бу гапларнинг тагига етаман. Хўш, ортга қайтишга тайёрмисан?
- Ха , бироқ энди у ерни топа оламизми?
- Ташвишланма! Мен нон ушоқлари билан оптимиздан из қолдириб келганман чунки у ерга қайтишга ундашингни билардим.
- Оҳ, қандай ақлсиз азизим! Элиза ўрнидан турди. Унинг юзида яна табассумни кўрганидан Жон хурсанд эди.
- Йўлдаги тепаликда фақат биттагина уй бор эди. Жон ва Элиза уйнинг ёнидан ўтиб кетаётганида Жон деразадан қимир этмай уларга қараб турган бир аёлнинг шарпасини кўрди.
- Қара! Дугонанг Миллининг хола-бувиси. Унинг

вазифаси анови икки жиннига қўнғироқ қилиб бизнинг бораётганимизни етказиш бўлса керак деб Жон кулди. Улар беш дақиқадан сўнг Виллога етиб келишди.

– Қулоқ сол! деди Жон Элизага. Ҳамма ёқ жимжит фақат атрофдан бақаларнинг товуши эшитиларди.

– Булар шунчаки бақалар деди Элиза.

– Қурбақалар эмас деб кулди Жон ва Зухро юлдузи чарақлаб турган мусаффо осмонга термилди.

– Улар шу ерда, Элиза! Осмонга қара! Қурбақали булутлар! Жон хохолаб кулди.

– Устимдан кулишни бас қилинг деб Элиза уни тирсаги билан туртди. Улар бир уйга киришди ва тўғри ётоқхонага боришди. Элиза ухлай олмади. У ўрнидан туриб дераза олдига борди.

Деразадан осмонга қараган Элиза унда булутлар сузиб юрганини кўрди. Шу пайт бирданига томга “гурс” этиб нимадир келиб урилди.

– Жон! Жонни! Туринг!

- Ҳа? Нима? Жон сапчиб ўрнидан туриб кетди.

– Бошланди! Бақалар ёмғири бошланди!

– Қурбақалар ёмғири! Унинг гапини тўғирлади Жон. – Тўғирлаб айтсанг бў...

“Гурс-гурс.” Жоннинг гапи оғзида қолди.

– Бу беманилик деди Жон жаҳл билан.

“Чарс-чурс”! Бу сафар шиша жаранглаши эшитилди.

– Эй ланати! Жон бақирганича ўрнидан туриб, костюмини кийди.

– Етар! Ҳозир... Томда ва ховлида бир неча марта гурсиллаган товуш эшитилди. Элиза эрига қўрқув билан қаради.

– Аниқ биладан бу ўша эси паст чол ва кампирнинг иши. Улар бир нечта қария ошна-оғайнилари билан ховлига бир балоларни отиб бизни мазах қилишяпти деб бақирди Жон.

“Гурс, қарс-қурс!” Бу сафар товуш ошхонадан эшитилди.

– Худо ҳаққи ҳозир... деб додлаганича Жон залга югириб чиқди.

– Мени ёлғиз ташлаб кетманг! Чинқирганича Элиза ҳам унинг ортидан югурди. Жон югириб мехмонхонага чиқди. У ерда катта дераза бўлиб у синиб ётарди. Жон синган шиша бўлагини қўлига олиб, унга яхшилаб разм солди. “Йўқ бунини тош синдирмаган” деб ўйлади у. “Бу...”

– Жон нима бу? деб Элиза унинг ортидан кириб келди.

– Қурбақа деди Жон гарангсираб. У синган шиша парчасига тикилганича ўзига ўзи алланималарни гапирарди. Деразадан ташқарига қараган Жон ақлга сиғмас даҳшатли манзарани кўрди. Ҳаводан бир тўда ғалати шаклдаги ниарсалар ёғарди. Улардан учтаси синиқ деразадан ичкарига кириб кетди. Биттаси тўғри полдаги шиша бўлагига бориб урилди ва танасидан қоп-қора суюқлик отилиб чиқди. Бунини кўрган Элиза чинқириб юборди. Қолган иккитаси эса гилам устига бориб тушди. Улардан бири ўзини ўнглаб олиб қалтираб деворни пайпаслаётган Жонга

қараб сакради. Ўша сакраган нарса қурбақа эди. Лекин у одатдаги қурбақаларга умуман ўхшамас, унинг яшил-қора танаси анча катта ва думалоқ эди. Унинг тилларанг кўзлари ғайриоддий тухумга ўхшарди. Оғзида эса игнага ўхшаш ўткир тишлари бор эди.

Бироз фурсат ўтиб яна бошқа кўплаб қурбақалар ичкарига отилиб кирди.

– Бу ердан кет! Жон зал эшиги олдида кўрқувдан қотиб қолган хотинига бақирди ва ўзи томонга сакраб келаётган қурбақани тепди. Қурбақа унинг оёқ бармоқларига ўткир тишларини санчди.

Дахшатли ва кучли оғриқдан Жон деворни бор кучи билан тепди. Атроф қурбақаларнинг хунук вақиллашига тўлиб кетганди.

– Бу ердан тезроқ қоч, Элиза! Жон яна хотинига бақирди ва қонаётган оёқларига қаради. Қурбақа ўлган аммо унинг катта, ўткир тишлари Жоннинг оёқ бармоқларига санчилганди. Жон уни силтаб юборди ва ниҳоят ундан халос бўлди. Хона ичи қурбақаларга тўлиб кетганди. Жон эшикка қараб югурди. Элиза ўзига келди ва эрини ушлаб тортди. Улар залга йиқилишди. Жон эшикни ёпишга улгирди. Жон дўкон олдида ўтирган ўша қарияни эслади. “Эй Худойим нега унга ишонмадим? Қанақасига ишонай, ахир умримда бундай дахшатга учрамагандим!” Жон Элизага ташқарини кўрсатди. Аммо Элиза у ерга чиқишдан кўрқиб орқага чекинди.

– Элиза! Жон хотинини ушлаб қолишга уринди. Хотини эса чинқирганича ундан узоқлашди.

Қурбақалар залга ҳам ўтишди ва улар томонга сакрай бошлашди. Жон хотинини ушлаб олди.  
– Элиза! Худо ҳаққи гапимни эшит! Биз ертўлага беркинишимиз керак! У ерда хавфсиз бўламиз!  
Жон уни силтади.

– Йўқ! Бақирди Элиза.

Айни пайтда жентелменлик қилиб, уни тинчлантириб ўтиришга вақт йўқ эди. Жон уни силтаб тортди ва олдинга судради. Залнинг яримига боришганида Элиза эс-хушини йиғиб эрига эргашди. Улар ертўла эшиги олдига боришди. Жон эшик тутқичини тортди бироқ эшик очилмади.

– Ланати! Жон бақирганича эшик тутқичини жон холатда тортди аммо эшик қилт этмади.

– Жон тезроқ! Элиза улар томон сакраб келаётган қурбақаларни кўрди.

– Жон илтимос! Илти...

Қурбақалардан бири Элизанинг тиззасига сакради. Элиза додлаб уни отиб юборди.

– Жон! Эй Худойим, Жон!

Жон Грэм бирданига хато қилаётганлигини тушинди. У эшикни итариш ўрнига уни тортиб ётганди. Эшикни олдинга итарганди у очилиб кетди. Жон ва Элиза ичкарига юз тубан йиқилишди. Қурбақалар эса очик қолган ертўла эшиги томонга сакради. Жон ўзини тутиб эшикни қарсиллатиб ёпди лекин қурбақалардан ўн иккитаси ичкарига киришга улгирди. Жон қоронғуда деворни пайпаслаб чироқни ёққанида Элиза яна додлаб юборди. Унинг сочларига

қурбақа ёпишиб олганди. У қичқирганича бошини ертўладаги қутилардан бирига урди. Қурбақа сочларидан тушиб мажақланиб кетди. Жон ва Элиза ортга чекинишди. Жон деворга суяб қўйилган занглаган белкуракни кўрди ва тезда уни қўлига олиб улар томонга сакраётган қурбақаларни ура бошлади.

Жон ертўла ичига кириб олган хамма қурбақаларни белкурак билан уриб ўлдирди. Эрхотин Грэмлар бири бирларини маҳкам қучоқлаб олишганича ташқарида тўхтовсиз ёғаётган қурбақалар ёмғирга қулоқ солишди. Жон ертўланинг митти деразасидан ҳовлида сакраб юрган қурбақаларни кўрди.

– Деразаларни беркитишимиз керак. Улар деразаларни синдириб кириши мумкин.

– Нима билан беркитамиз? деди Элиза. Жон атрофга қаради ва деворга тиралган фанерларни кўрди Кўп эмас аммо етади.

– Манавилар билан деб фанерларни кўрсатди Жон.

– Қани, менга буларни майдароқ бўлақларга бўлишга ёрдамлаш.

Улар тезда ишга киришишди. Ертўланинг тўртта деразаси бор эди. Жон билан Элиза охирги деразани фанер билан ёпишганида биринчи деразанинг шишаси сингани эшитилди бироқ фанер жойида мустаҳкам турарди. Грэмлар ертўланинг ўртасига бориб ўтиришди. Бу орада ертўла эшиги ортидан эшикни ғажишни бошлаган қурбақаларнинг овози эшитилди.

– Агар улар эшикни еб ичкарига киришса нима қиламиз? Шивирлади Элиза.

– Билмайман деди Жон қўрқув тўла кўзлари билан эшик томонга боқаркан.

Шу пайт эшикнинг ўртасидан катта тешик очилиб ундан қурбақалар тўдаси ёпирилиб кирди. Элиза бу сафар чинқиримади. Унинг додлашга ҳоли қолмаганди. Қурбақалар галаси улар томонга ташланганида Жон Грэмнинг фарёди бутун атрофга эшитилди...

Ярим тун. Виллода қурбақалар ёмғири шаррос қуярди. Тунги соат бир яримда кўл яқинидаги қарағай дарахтига охирги қурбақа келиб тушди ва ерга тушиб сакраб-сакраб қоронғуда ғойиб бўлди. Эрта тонгда бутун Вилло шахарчаси чор атрофга сакраб, вақ-вақлаётган қурбақаларга тўлиб кетганди. Махаллий фермерларнинг ҳар етти йилда бир бўладиган ушбу дахшатли ёмғирдан хабардорлиги учун чорва молларини хавфсиз жойга олишга улгиришганди. Ахир суғурта компаниясидагилар қурбақа ёмғири ҳақидаги гапларга ишонишармиди?! Қуёш уфққа бош кўтаргач унинг нурлари қурбақаларни эритиб юборди. Уларнинг териси оқариб, “пақ-пақ” этиб ёрилиб кетди ва оппоқ суюқликка айланди. Вилло шахарчаси худди сўнаётган вулқон маконига ўхшаб қолганди.

Эрталаб соат саккизларда машинасида Лаура Стентон Савдо маркази олдига келиб тўхтади. У машинадан тушганида анча хорғин кўринишда эди. Қаёқдандир Генри Эден ҳам ити билан етиб

келди.

– Ичкаридаги аҳволни қара, шартта ортимга ўгирилиб уйга қайтиб кетгим келяпти деди Лаура бошини қимирлатиб.

– Лекин бу фойда бермайди, Лаура деб унга яқинлашди Эден.

– Элонларинг ёзилган пештахтанг синибди деди Лаура.

– Ха, кўриб турибман, Худога шукрки бу ланати ёмғир етти йилда бир ёғади. Қария яна бир нималарни минғирлади.

– Нима дединг? Яхши эшитмадим?

– Бунга йўл қўймаслигимиз керак эди деяпман деди Генри афсусланиб.

– Улар хали жуда ёш эди. Биз бунга йўл қўймаслигимиз керак эди Бу икки ёш ҳақиқатдан ҳам ажойиб жуфтлик эди. Ахир ўзинг шундай дегандинг-ку деб кўзларига ёш олди қария Эден.

– Ха тўғри, бироқ энди қўлимиздан ҳеч нарса келмайди. Лаура Генрининг елкасига қўлини қўйди.

– Биз уларни мажбурламадик, аксинча бунга қарши бўлдик. Уларни хатто огоҳлантирдик. Улар ўзлари шу ерда қолишни исташди. Улардан олдин бошқалар ҳам шундай қилишган. Бу нарса одат бўлиб қолган.

– Ха биламан деб хўрсинди Эден. – Бу шаҳарнинг хидидан кўнглим айнийди. Ишқилиб етти йилдан сўнг бу ерларга яна бошқа бегона инсонлар келмасин.

– Эхтимол сўнгги марта шундай дахшатли ёмғир

ёғишидир ёки бу ерга кейинги сафар ҳеч ким келмас деди Лаура Стентон.

– Бундай бўлмаса керак. Аммо етти йил узоқ муддат унгача бир гап бўлар деди Генри.

Бироздан сўнг Генри Лаурадан элонлар ёзилган пештахтани осиб қўйишга кўмаклашишини сўради. Улар ишни тугатишгач – Мана энди етти йи тинчгина яшаймиз деди Генри Эден.

– Ха, шундай деб ўйлади Лаура. –Лекин етти йилдан сўнг яна даҳшатли қурбақа ёмғири ёғади ва айнан ўша куни икки ёш эр-хотин ҳам келишади. Биз эса уларни қайта-қайта огоҳлантирамиз лекин улар бунга ишонишмайди, кейин эса... Бу нарса давом этаверади.

Ҳаво очилиб қуёш чарақлаб чиқди ва шу тахлит Виллода даҳшатли ёмғир кечаси якунига етди.